

2-TOM, 8-SON

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani dasturi taxlili va taklif mulohazalar.

M. Abdullaeva.

QDPI 3-kurs tayanch doktoranti.

Abdullaevamarifatxon5@gmail.com

Annotatsiya. Maqola oliy ta'lim tizimini Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun "Boashlang'ich ta'limda tarbiya" fani asosida kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadlari haqida.

Kalit so'zlar: tarbiya, ta'lim, kasbiy bilim, qobiliyat, maqsad, kompetensiya.

Абстрактный. В статье речь идет о факторах, влияющих на развитие профессиональных знаний, умений, квалификации, а также целях формирования профессиональных компетенций учащихся начальных классов в системе высшего образования на основе предмета «Образование в начальной школе».

Ключевые слова: воспитание, образование, профессиональные знания, способности, цель, компетентность.

Abstract. The article is about the factors affecting the development of professional knowledge, skills, qualifications, and the goals of developing professional competencies for students of primary education in the higher education system based on the subject "Education in Primary Education".

Key words: upbringing, education, professional knowledge, ability, goal, competence.



2-TOM, 8-SON

Kirish. Jaxon halqlarining ta'lim-tarbiya sohasidagi tajribalariga ko'ra, ko'plab halqlarda bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'ziga bo'lgan hurmat tuyg'usini, o'g'il va qiz bolalarda yoshlikdan shakllantirish kelajakda uni bajarayotgan ishiga nisbatan qat'iyatli, o'z ishiga ma'suliyatli, kelajakda muvaffaqiyatga erishishida, dadillik va yetakchilik qobiliyatlarini ko'rsata olishda asos bo'lib hizmat qiladi. Ushbu mavzularni oliy ta'limda "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" mavzulari doirasida o'qitishni o'rgatish metodikasi fan dasturiga kiritilishini taxlil qilgan holda, 1-4 sinflar darsliklarida bu mavzularni keltirilganligini ko'rib chiqdik. Unga ko'ra 1-sinf darsligi 10-bet, 3-mavzu "Mening orzuyim.", 22-bet 7-8-mavzu "Mening sevimli ertak qahramonlarim", 2-sinf 4-mavzu 12-bet "Men qanday inson bo'lishim kerak", 3-sinf 7-mavzu 26-bet "Kim bo'lsam ekan?" 4-sinf 11-12-mavzular "Imkoniyat va matonat" qisman bo'lsa ham shaxsning o'ziga nisbatan hurmat, o'zini-o'zi rivojlantirish va tarbiyalash masalalarini ochib beradi.

Ta'kidlash kerakki "Tarbiya" fanini o'qitishda o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi tarbiyalash, mavzulari yopiq holda qolib ketishi mumkin emas. Chunki mazkur metodologik masala ochib berilmay turib, o'quvchilarda, talabalarda ota-onaga, Vatanga nisbatan hurmat, yosh avlodni tarbiyalash va boshqa mavzularga mo'ljallangan malaka va ko'nikmalarni egallab bo'lmaydi. Binobarin, tarbiya jarayoni uchun eng avvalo insonni o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi tarbiyalashi va o'ziga ishonchi va hurmati fundamental masala bo'lib shaxs shakllanishi va rivojlanishiga doir boshqa barcha mavzular shu mavzu ustiga quriladi. "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" ni o'qitishda ushbu yo'nalishdagi mavzularning yo'qligi, ushbu masalada bo'shliq yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. **Asosiy qism.** O'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi anglash shaxsning ichki jarayonlari bo'lib, tashqaridan berilgan bilim va tarbiya natijasida u yanada sayqallanadi, takomillashadi. Ichki va tashqi jarayonlar qanchalik rivojlantirilsa insonning kamol topishi va muvaffaqiyatida shunchlik samaraga erishadi. Shaxs o'zini-o'zi rivojlantirmay turib kasbiy jihatdan rivojlanishi haqida gapirish noo'rindir. Adabiyotlarda o'zini-o'zi rivojlantirishning turli



2-TOM, 8-SON

talqinlarini ham toppish mumkin. K.A. Slavskaya o'zini-o'zi rivojlantirishga shunday ta'rif beradi: "O'zini-o'zi takomillashtirish(o'zini-o'zi rivojlantirish) – bu o'z jamiyati, davri madaniyati bilan tanishish, uzliksiz ta'lim jarayonida bilim darajasini doimiy ravishda oshirib borish, mavjud bilimlarni yangilari bilan to'ldirish va nihoyat, hayotda, ijodda, ishda, faol o'zini-o'zi anglashidir." [1; 336]

G. Tsukerman o'zini-o'zi rivojlantirishga quyidagicha ta'rif bergan: "O'zini-o'zi rivojlantirish bu – ongli o'zgarish, va o'z "Men"ini o'zgarmagan holda saqlashga bo'lgan ongli intilish. Bu o'zgarishlarni maqsadi, yo'nalishi va vositalarini "men" o'zim belgilayman." [2; 288]

S.L. Rubinshteyn : "Shaxs ijodkor sifatida harakat qilib, o'zini-o'zi rivojlantirishning cheksiz jarayonida o'zining cheksiz mohiyatini anglaydi." [3; 423] degan. Demak, hech kim shaxs bo'lib tug'ilmaydi, inson butun umri davomida o'zini-o'zi rivojlantirish va shakllantirish jarayonida shaxsga aylanadi.

"O'zini-o'zi rivojlantirish", "o'zini-o'zi anglash", "o'ziga nisbatan ishonch" yo'nalishidagi mavzular "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" ni o'qitishda auditoriyaning yosh hususiyatini hissobga olgan holda, ilmiy va diniy asoslar uyg'unligida, jamiyatdagi insonni o'rni, hayotiy maqsadlarini tushunishga undaydigan va o'z "men"ini o'rnata oladigan mazmunda tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha o'zini-o'zirivojlantirish, o'ziga ishonch, o'zini-o'zi anglash masalalarini "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" dasturiga kiritish maqsadga muvofiq bo'lib, uning nazariy mohiyatini Amur Temur merosi, A. Navoiy va bohqa buyuk mutafakkirlarimiz qarashlariga mos ravishda o'rganish, "Inson kamoloti va muvaffaqiyatida o'zligini anglash va rivojlantirish"deya ta'riflash va unga mavzu sifatida joy ajratish kerak bo'ladi. Darslikdagi Vatanga, ota-onaga, do'stlarga nisbatan hurmat, ishonch, sadoqat, insoniylik, oila tarbiyasi mavzularining o'qitishdan oldin aynan shaxsning o'ziga nisbatan hurmat, ishonch mavzularini o'qitish bilan boshlanishi uni jamiyatdagi ishonch, sadoqat, bilim olish,



2-TOM, 8-SON

insonparvarlik, kasbiy bilim, ajdodlar ruhiga sadoqat, milliy qadryatlarga nisbatan hurmat yo'nalishini ta'minlab beradi. Bu yondashuv darslikda induksiya-hususiyydan umumiylikka, oddiylikdan murakkablikka qoida va tamoillari mos bo'lishini ta'minlab beradi.

“Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani” darslarida “Inson kamoloti va muvaffaqiyatida o'zlikni anglash va rivojlantirish” yo'nalishidagi mavzular yo'q bo'lsada, inson mohiyatini taxliliy yo'nalishida bir qator mavzular shakllantirilgan: “O'quvchilarni muvaffaqiyat-qat'iyat va mehnatga tarbiyalash”, “Boshlang'ich ta'limda tartib-intizom va hamjihatlikni shakllantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini do'stona munosabatda tarbiyalash”, “Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni odob-axloqqa tarbiyalash.”, “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish”, Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy-qadriyatlar tushunshasini shakllantirish”.

Ta'kidlash kerakki mazkur mavzularda insonni tartib-intizom, mehnatga tarbiyalash, odob-ahloq tushunchalarini shakllantirish, insoniylik, boshqalarga beminnat yordam ko'rsatish, do'stlikni qadrlash kabi tushunchalar ilmiy-nazariy va tarixiy va hayotiy asoslar bilan yoritib berilgan. Mavzularni yoritishda innovatsion texnologiyalar va axborot resurslaridan foydalanilganligi mavzu ustida muhokama yuritish, mavzularni bayon etish, taxlil qilish ishlarini osonlashtiradi.

“Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani” asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlanishda uslubiy –metodik ta'minotiga ta'asir ko'rsatadigan omillar o'qituvchining jamiyatdagi yangiliklardan habardorligi, psixologik, intellektual rivojlanishi, o'zini-o'zi hurmat qilish, intilish darajalari, individual rivojlanishi bo'lib fan mavzularini o'qitishda mavzularga Prezident farmonlari, Vazirlar maxkamasi qarorlarini taxlil qilish, fanga oida darslik va o'quv-metodik majmualarni yaratish, o'z huquqlarini bilish mavzularining singdirilganligini keltirib o'tishimiz mumkin. Bularga: “Uzluksiz ta'lim tizimida “Tarbiya” fanining joriy etilishi”, “Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiyasi.”, ““Tarbiya” fani bo'yicha umumiy o'rta



2-TOM, 8-SON

ta'limning davlat ta'lim standartini va o'quv dasturlari.", "Tarbiya" fani bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yaratish masalalari.", "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish huquqi.", "Boshlang'ich ta'limda yaratilgan imkoniyatlar va oiladagi munosabatlarni o'rgatish metodikasi." kabi mavzularni misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar guruhini yuqoridagi 2.1-paragrafda ko'rib chiqqanmiz.

"Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" ni o'qitish jarayonida mavzularni talabalarga tushunishlari oson, hayotiy dalil va voqealar asosida, milliy qadryatlarimiz singdirilgan holda va tajribalarga asoslangan bo'lishini ta'minlash uchun mavzularni metodik jihatini takomillashtiramiz. Bunda dunyo tan olgan: ma'ruza, taqdimot, aqliy hujum, esse, tasviriy, musiqiy, muhokamali o'qitish, savol-javob, blum kubigi metodlaridan faol foydalanamiz. "Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish", "Milliy qadryatlar tushunchasini anglash" mavzularini o'qitishda halqimizning turmush tarzi, milliy qadryatlarimizni talqin qiladigan, yaxshilik, ezgulik tushunchalari bilan yo'g'rilgan milliy qo'shiqlardan, videokliplardan foydalanish samarali natija bersa, "Maktab, oila va mahallaning tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirish", "Kishik maktab yoshidagi o'quvchilarini tejamkorlikka o'rgatish.", "O'quvchilarni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga o'rgatish" mavzularini o'qitishda esse yoki she'r metodi foydalidir. " Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish", "Boshlang'ich ta'lim o'quvshilarini axloqiy etik va estetik jihatdan rivojlantirish" mavzulari esa muhokamali o'qitish, taqdimot, aqliy hujum tipidagi metodlarda tushunarliroq bo'ladi.

Fan dasturida bo'lajak o'qituvchilarni "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning uslubiy-metodik asoslarida ijtimoiylashuv va shaxsga qaratilgan tarbiya tamoyiliga ham ko'plab nazariy, uslubiy va metodik materiallar keltirilgan. "O'quvchilarni oilaviy hayotga tarbiyalashning usullarini o'rgatish" mavzusi shular jumlasidandir. Ijtimoiylashuv va shaxsga qaratilgan tarbiya deganda- o'qituvchi



2-TOM, 8-SON

bolaga bilim berish bilan birga, bilim madaniyatini ham o'rgatishi kerak. "Ijtimoiylashuv va shaxsga yo'naltirilgan tarbiya bu- inson tomonidan jamiyatda hayot kechirishni beruvchi bilimlar, meyorlar va qadryatlar tizimini o'zlashtirish jarayonidir." [4; 147] Ijtimoiylashuv – tushunchasini birinchi bo'lib amerikalik olim F. G. Keddings insonlarga nisbatan qo'llagan. U o'z kitobida " Ijtimoiylashuv-individ tabiati yoki harakterining rivojlanishi, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir." [5] degan. Hozirgi zamon lug'atida ijtimoiylashuvning yana ikkita sinonimi keng qo'llaniladi. Bular: "shaxs shakllanishi" va "Tarbiya" jarayonidir. Ijtimoiylashuv insonning jamiyatga qo'shilib yashashi va shaxs shakllanishidagi kerakli bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishidir. Ijtimoiylashuv jarayonini olimlar o'z qarashlari bilan turlicha talqin qilganlar. Shaxsning ijtimoiylashuvi borasida ish olib borgan olimlardan K.Fromm ijtimoiylashuv mehanizmlarini to'rt qismga bo'lib izohlagan.

Adaptatsiya – inson o'z ichki hususiyatlarini o'zi yashayotgan muhit sharoitidan kelib chiqib o'zgartirishi. Bunga oliygohni yangi bitirib kelgan talabaning yangi jamoa, sinf va o'quvchilarga moslashishini misol qilib keltirish mumkin.

Identifikatsiya – shaxs tomonidan ongli va ongsiz ravishda boshqalarning fe'l- atvor, qadryatlarini, hususiyatlarini o'ziniki qilib olish, o'zlashtirishiga aytiladi. Bunga ko'proq kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining kattalarga, na'munali tengdoshi fe'l atvorlarini o'zlashtirib olishi tushuniladi.

Taqlid qilish- shaxs tomonidan ongli ravishda boshqalarning hatti-harakati yurish turishi, gapirishini o'zida tiklash, o'zlashtirishga aytiladi. Bu jarayon ham ayniqsa kichik yoshdagi maktab o'quvchilari orasida ko'p uchraydi. (na'munali o'quvchi, na'munali va chiroyli hulqli ustoz, taniqli kasb egasi, artist..ga nisbatan)

Ishonish- shaxs tomonidan ongli va ongsiz ravishda u bilan muloqotga kirgan insonlarning fikr, his-tuyg'ulari, dunyoqarashini o'zida tiklash, o'zlashtirib olishdir.



2-TOM, 8-SON

Dasturda mazkur talablar hisobga olingan holda “O‘quvchilarni oilaviy hayotga tarbiyalashning usullarini o‘rgatish” kabi mavzular orqali ijtimoiylashuv va shaxsga yo‘naltirilgan tarbiyaga ham e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bunday yondashuvni o‘z vaqtida Yaponiya, Finlandiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlar tajribasida ham ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi taxlillardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak: bugungi globallashuv sharoiti talablari asosida ta‘lim tizimida “Tarbiya” fani o‘qitila boshlandi. Mazkur fan avvalgi “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Dunyo dinlari tarihi” fanlari negizida shakllantirilishiga qaramay, unga yanada ko‘proq vazifalar yuklangan. Tarbiya darsliklari shiorini umumiy ravishda “Baxt va muvaffaqiyat kaliti” deb nomlanishi ham bejiz emas. Mazkur bilimlar talabalarda davr talablariga mos bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishga, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga, ijtimoiylashuv va shaxs tarbiyasini joriy etishga qaratilgan.

Xulosa. Yuqoridagi vazifalar mezonidan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan taxlillar “Boshlang‘ich ta‘limda tarbiya fani” ning uslubiy metodik asoslari: konsepsiyasi, fan dasturi mavzularida shaxsni o‘zini-o‘zi hurmat qilish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish va o‘zlikni anglash masalasiga alohida o‘rin ajratilmaganini ko‘rsatadi. Paragrafda mazkur masala dolzarbligidan kelib chiqqan holda o‘z-o‘ziga hurmat, ishonch va o‘zini- o‘zi rivojlantirish masalasini darslik dastur mazmuniga kiritish, uni umumiy mavzulardan oldinga joylashtirgan holda, dastur mazmunini induksiya hususiylikdan umumiylikka, tizimlilik va izchillik qoidalari asosida shakllantirish takliflari berildi.



2-TOM, 8-SON

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abulxanova-Slavskaya, K.A. Faoliyat va shaxsiyat psixologiyasi [Matn] / K.A. Abulxanova-Slavskaya. - M.: Nauka, 1980. - 336 b.
2. Sukerman, G.A. O'z-o'zini rivojlantirish psixologiyasi [Matn] / G.A. Tsukerman, B.M. MagistrLAR. - M.: Interprax, 1995. - 288 b.
3. Rubinshteyn, S.L. Umumiy psixologiya muammolari [Matn] / S.L. Rubinshteyn. - M.: Pedagogika, 1973. - 423 b.
4. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T.: Sharq, 2004. – B. 147
5. F.G.Keddings “ijtimoiylashuv nazariyasi” 1987

